

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ YUKINI HISOBLASH USLUBIYOTI VA UNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIGA TA’SIRI

Nodirov Asadbek Tohir o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Moliya kafedrası “Moliya” mutaxassisligi magistranti

nodirovasadbek2000@gmail.com

Tel.: +998900072212

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda soliq yukini hisoblashning amaldagi uslubiyoti, mavjud yondashuvlardagi muammolar va soliq yukining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida hisoblangan soliq yuki bilan korxonada darajasidagi real soliq bosimi o‘rtasidagi tafovutlar, nominal va samarali soliq stavkalari farqi, yashirin iqtisodiyot hamda ma‘muriy xarajatlarning hisobga olinmasligi kabi uslubiy muammolar yoritilgan. “Qizilqumsement” AJning 2019–2023-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida soliq islohotlarining korxonada samarali soliq stavkasi, sof foydasi va rentabelligiga ijobiy ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: soliq yuki, hisoblash uslubiyoti, tadbirkorlik subyektlari, samarali soliq stavkasi, fiskal siyosat, ma‘muriy yuk.

Kirish:

Soliq yukini baholash tadbirkorlik faoliyatiga soliq tizimining qanday ta’sir ko‘rsatayotganini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki soliq yuki faqat byudjetga undirilgan soliqlar hajmini emas, balki korxonalarning moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi, raqobatbardoshligi va rasmiy faoliyat yuritish rag‘batiga ham bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli soliq yukini hisoblashda qo‘llanilayotgan uslubiyot qanchalik aniq bo‘lsa, soliq siyosatini baholash va uni takomillashtirish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Asosiy qism:

Soliq yukini hisoblashning nazariy asoslari : Xalqaro amaliyotda, xususan OECD yondashuviga ko‘ra, soliq yuki davlat sektoriga majburiy va ekvivalentsiz to‘lovlar yig‘indisining YaIMga nisbati sifatida hisoblanadi. O‘zbekiston amaliyotida esa soliq yuki ikki xil chegarada talqin qilinadi: tor ma‘noda — faqat Soliq qo‘mitasi tomonidan undirilgan tushumlar; keng ma‘noda — bojxonada to‘lovlari, majburiy ijtimoiy ajratmalar va byudjetdan tashqari jamg‘armalar tushumlari ham qo‘shilgan holda hisoblangan fiskal yuk. Tadqiqotda makro, mezo va mikro darajadagi uch bosqichli tahlil yondashuvi ilmiy jihatdan maqbul deb topilgan.

O'zbekistonda soliq yukining makroiqtisodiy dinamikasi : 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda soliq tushumlari mutlaq qiymatda 103,6 trln so'mdan 199,5 trln so'mga (92,6% o'sish), YaIM hajmi esa 705,1 trln so'mdan 1 535,4 trln so'mga (117,7% o'sish) yetdi. Natijada soliq yukining YaIMdagi ulushi 15,5% dan 13,7% gacha pasaydi. Mazkur pasayish iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar hamda soliq ma'muriyatchiligining soddalashtirilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, IMFning 2026-yildagi O'zbekiston bo'yicha missiyasi bayonotida soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va o'rta muddatli daromad strategiyasini kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Soliq yukini hisoblashdagi uslubiy muammolar : Amaldagi makroiqtisodiy yondashuv bir qator jiddiy cheklovlarga ega. Birinchidan, makro soliq yuki korxonada darajasidagi real soliq bosimini to'liq aks ettirmaydi: ayrim tarmoqlar yoki kichik biznes subyektlari uchun QQS, foyda solig'i, mol-mulk va yer solig'i yig'indisi og'irligicha qolishi mumkin. Ikkinchidan, qonunchilikda belgilangan nominal stavkalar bilan korxonaning amalda to'lagan soliqlari asosidagi samarali soliq stavkasi o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, bu farq imtiyozlar, soliq bazasining shakllanishi va rentabellik darajasiga bog'liq. Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotning mavjudligi soliq bazasini toraytiradi va rasmiy faoliyat yuritayotgan korxonalar zimmasiga nomutanosib yuk tushishiga sabab bo'ladi. To'rtinchidan, hisobot tayyorlash, elektron hisobvara-fakturalar yuritish va soliq tekshiruvlariga tayyorgarlik kabi ma'muriy xarajatlar an'anaviy soliq yuki formulasida aks ettirilmaydi, biroq ular tadbirkorlik subyektlari uchun sezilarli moliyaviy va vaqt sarfini keltirib chiqaradi.

Soliq islohotlari va ularning korxonada faoliyatiga ta'siri: "Qizilqumsement" AJ misolida

2017-yildan boshlab amalga oshirilgan soliq islohotlari — jumladan, foyda solig'i stavkasining 14% dan 12% ga, QQS stavkasining 20% dan 12% ga, jismoniy shaxslar daromad solig'ining 12% li yagona stavkaga o'tkazilishi — tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yukini sezilarli darajada yumshatdi. Ushbu o'zgarishlarning yirik ishlab chiqarish korxonasi misolida tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2019-2023 yillarda “Qizilqumsement” AJda soliq yukining ta’siri²³

Yil	Sof tushum	Soliqqacha foyda	Foyda solig’i	Soliq yuki, tushumga nisbatan	Samarali soliq stavkasi	Sof foyda	Sof rentabellik
2019	1682.7	341.5	67.0	4%	20%	274.5	16%
2020	2221.0	745.1	155.1	7%	21%	600.0	27%
2021	1906.8	300.3	71.9	4%	24%	228.3	12%
2022	1722.5	359.3	60.0	3%	17%	299.4	17%
2023	1796.9	526.4	56.8	3%	11%	469.6	26%

1- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023-yilga kelib korxonaning samarali soliq stavkasi 11% gacha pasaygan, sof foyda esa 469,6 mlrd so‘mga yetib, sof rentabellik 26% ni tashkil etgan. Bu soliq islohotlari natijasida korxonada sezilarli darajada ko‘proq moliyaviy resurs qolganidan dalolat beradi. Biroq 2020–2021-yillarda samarali stavkaning 21–24% gacha ko‘tarilishi yangi Soliq kodeksiga moslashish, elektron hisobvaraƒ-fakturalar tizimining joriy qilinishi va soliq nazoratining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, islohotlarning qisqa muddatli moslashuv bosimini ham ko‘rsatadi.


Xulosa:

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda soliq yukini hisoblashning amaldagi makroiqtisodiy yondashuvi umumiy tendensiyalarni aks ettirsa-da, korxonalar darajasidagi real soliq bosimini baholashda bir qator uslubiy kamchiliklarga ega. 2019–2023-yillardagi soliq islohotlari “Qizilqumsement” AJ misolida samarali soliq stavkasining pasayishi va rentabellikning oshishiga olib kelgan. Kelgusida soliq yukini baholash metodologiyasini takomillashtirish, ma’muriy xarajatlarni hisobga oluvchi ko‘rsatkichlarni joriy etish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq tizimining tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta’sirini yanada kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. Revenue Statistics 2025. OECD Publishing, 2025.
2. International Monetary Fund. Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission. April 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). 2020.

²³ <https://openinfo.uz/uz/organizations/238?tab=finance&page=1>

- 
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QQS stavkasini 15 foizga pasaytirish to‘g‘risidagi qarori, 2019.
 6. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill.
 7. “Qizilqumsement” AJ moliyaviy hisobotlari, 2019–2023.

